IJRO.GOV.UZ тизими орқали ЭРИ билан тасдиқланган, Ҳужжат коди: JP32588966

ORIENTAL UNIVERSITETI REKTORINING BUYRUG‘I

44 - son

B U Y R U Q

2026-yil 16-mart **Toshkent shahri**

Ta’lim sifatini ta’minlash
bo‘limini tashkil qilish to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2025-yil 6-avgustdagi “O‘rta maxsus, kasbiy, oliy va oliy ta’limdan keyingi ta’lim, shuningdek, kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tashkilotlarini kompleks hamda maxsus davlat akkreditatsiyasidan o‘tkazish tizimini joriy etish to‘g‘risida”gi 498-sonli qarori ijrosini ta’minlash maqsadida

B U Y U R A M AN:

1. “O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Ta’lim sifatini nazorat qilish davlat inspeksiyasi faoliyatini tashkil etish to‘g‘risida”gi 2017-yil 18-iyuldagi 515-sonli qarori va O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirining 2024-yil 30-avgustdagi “Nodavlat oliy ta’lim tashkilotlarida ta’lim sifatini ta’minlash va nazorat qilish mexanizmlarini takomillashtirish to‘g‘risidagi 101-XDFU- sonli topshirig‘i ma’lumot va ijro uchun qabul qilinsin.

2. Universitet rektorining 2023-yil 3-iyuldagi 30-sonli buyrug‘i bilan tashkil qilingan **“Ta’lim sifatini boshqarish bo‘limi”** nomi bekor qilinsin va O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2025-yil 6-avgustdagi 498-sonli qaroriga muvofiq **“Ta’lim sifatini ta’minlash”** nomi bilan qayta tashkil etilsin.

3. Bo‘limga universitetning umumiy ish hajmi va talabalar sonidan kelib chiqib ichki shtatlar doirasida **3 nafar** xodim biriktirilsin.

4. Bo‘limga universitetning kadrlar tayyorlash sifatini ta’minlash bo‘yicha ichki baholashni tashkil etish, ta’lim sifatini doimiy monitoring qilib borish orqali

unga ta’sir etuvchi omillar to‘g‘risidagi ma’lumotlarni universitet rektoriga taqdim etib borsin.

5. Universitetni davlat attestatsiya va akkreditatsiyasidan o‘tkazishga tayyorlash hamda o‘quv jarayonining samaradorligini oshirish maqsadida asosiy samaradorlik ko‘rsatkichlari (KPI) tizimini joriy qilishga javobgar ekanligi belgilansin.

6. Ushbu buyruqning bajarilishini nazorat qilishni o‘z zimmamda qoldiraman.

Rektor **N.Mamataxunov**

LOYIHA KIRITUVCHI:

Inson resurslarini boshqarish bo'limi boshlig‘i v.v.b.
M. Muydinova

KELISHILDI:

Yoshlar masalalari va ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha birinchi prorektor
B. Arabov

O‘quv ishlari bo'yicha prorektor
X. Aminov

Moliya-iqtisod ishlari bo‘yicha prorektor
F. Quvondiqov

Xalqaro hamkorlik bo‘yicha prorektor
F. Xudayberdiyev

Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo‘yicha prorektor
M. Nasirova

O‘quv-uslubiy boshqarma boshlig‘i
A. Mardanov

Devonxona mudiri
Z. Muminova

Yuristkonsult
M. Xasanov